BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLAR

Ubaydullayeva Sharofat G‘ulom qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti
E-mail: sharofatubaydullayeva9899@gmail.com.

Annotatsiya: Bugungi globallashuv davrida o‘quvchilarning axborot oqimida mustaqil ravishda yo‘l topishi, zaruriy ma’lumotni izlab topishi va undan to‘g‘ri foydalanishi ta’limning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirish ta’lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonning samaradorligi nafaqat ta’lim mazmuni va metodlariga, balki o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va motivatsiyasiga ham bevosita bog‘liq.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirish jarayonida ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy pedagogik va psixologik omillarni tahlil qilish hamda samarali metodik yondashuvlarni aniqlash.

Tadqiqot davomida pedagogik va psixologik adabiyotlar, boshlang‘ich ta’lim uchun mo‘ljallangan elektron ta’lim resurslari, tajriba-sinov kuzatuvlari asosida o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyati tahlil qilindi. Metod sifatida pedagogik kuzatuv, taqqoslash va tahlil, interfaol metodlar tajribasini sinovdan o‘tkazish, suhbat va anketa o‘tkazish usullaridan foydalanildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillar ta’lim mazmunining dolzarbligini va interaktiv usullar qo‘llanishini, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini, ta’lim jarayonining texnik imkoniyatlari (kompyuter, planshet, elektron darsliklar, multimedia vositalari)ni va darsdagi ijobiy kommunikativ muhitni o‘z ichiga oladi.

Psixologik omillar esa o‘quvchilarning yosh xususiyatlarida (tez zerikish, o‘yin faoliyatiga moyillik, obrazli fikrlash), motivatsiya va rag‘batlantirishda (musobaqa elementlari, elektron testlar, gamifikatsiya), individual qobiliyat va qiziqishlarni inobatga olishda, emotsional qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik muhitini yaratishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirish samaradorligi pedagogik va psixologik omillar uyg‘unligiga bog‘liq. O‘qituvchi darslarni loyihalashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalangan holda o‘quvchilarda mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va axborotni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishi zarur.

ISSN 3030-3907

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, axborot madaniyati, pedagogik omillar, psixologik omillar, elektron ta’lim resurslari, o‘qish savodxonligi.

Аннотация: В условиях современной глобализации одной из актуальных задач образования является формирование у учащихся способности самостоятельно ориентироваться в информационных потоках, находить необходимую информацию и правильно использовать её. С этой точки зрения формирование информационной культуры у учащихся начальных классов приобретает особое значение в образовательном процессе. Эффективность данного процесса зависит не только от содержания и методов обучения, но и напрямую связана с возрастными особенностями, интересами и мотивацией учащихся.

Цель данного исследования — проанализировать основные педагогические и психологические факторы, влияющие на процесс формирования информационной культуры у младших школьников, а также определить эффективные методические подходы.

В ходе исследования были проанализированы педагогическая и психологическая литература, электронные образовательные ресурсы, предназначенные для начального образования, а также деятельность учителей и учащихся на основе опытно-экспериментальных наблюдений. В качестве методов использовались: педагогическое наблюдение, сравнение и анализ, апробация интерактивных методик, проведение бесед и анкетирование.

Педагогические факторы, влияющие на формирование информационной культуры у младших школьников, включают актуальность содержания образования и использование интерактивных методов, методическую подготовку учителя и его способность применять инновационные технологии, технические возможности образовательного процесса (компьютеры, планшеты, электронные учебники, мультимедийные средства), а также наличие позитивной коммуникативной среды на уроке.

Психологические факторы проявляются в возрастных особенностях учащихся (быстрая утомляемость, склонность к игровой деятельности, образное мышление), в мотивации и стимулировании (элементы соревнования, электронные тесты, геймификация), в учёте индивидуальных способностей и интересов, а также в создании условий для эмоциональной поддержки и сотрудничества.

Результаты исследования показывают, что эффективность формирования информационной культуры у младших школьников зависит от гармоничного сочетания педагогических и психологических факторов. Учителю необходимо при проектировании уроков учитывать возрастные

ISSN 3030-3907

особенности детей, эффективно использовать электронные образовательные ресурсы, формируя у учащихся навыки самостоятельного поиска, критического мышления и правильного применения информации.

Ключевые слова. Начальное образование, информационная культура, педагогические факторы, психологические факторы, электронные образовательные ресурсы, читательская грамотность.

Annotation: In the modern era of globalization, one of the crucial challenges of education is to enable pupils to independently find their way in the vast information flow, search for the necessary data, and apply it correctly. From this standpoint, fostering an information culture among primary school pupils has a special role in the learning process. The effectiveness of this process is determined not only by the content and methods of education but also by pupils' age-specific characteristics, interests, and motivation.

The purpose of this study is to analyze the main pedagogical and psychological factors influencing the formation of information culture among primary school pupils and to identify effective methodological approaches to support this process.

During the research, pedagogical and psychological literature, electronic educational resources designed for primary education, and experimental observations of teacher and pupil activities were analyzed. The methods applied included pedagogical observation, comparison and analysis, testing interactive teaching methods, as well as conducting interviews and surveys.

Pedagogical factors influencing the development of information culture among primary school pupils include the relevance of the educational content, the use of interactive methods, the teacher's methodological preparedness and ability to apply innovative technologies, the availability of technical resources (computers, tablets, electronic textbooks, multimedia tools), and the presence of a positive communicative environment in the classroom.

Psychological factors manifest themselves in pupils' age-specific traits (short attention span, inclination to play-based activities, figurative thinking), motivation and encouragement (use of competition elements, electronic tests, gamification), consideration of individual abilities and interests, as well as the creation of an emotionally supportive and cooperative learning atmosphere.

According to the research findings, the effectiveness of forming information culture among primary school pupils depends on the harmony of pedagogical and psychological factors. Teachers, when designing lessons, should consider children's age-specific features and make effective use of electronic educational resources. This will help pupils develop skills in independent inquiry, critical thinking, and the proper use of information.

ISSN 3030-3907

Keywords. Primary education, information culture, pedagogical factors, psychological factors, electronic educational resources, reading literacy.

Kirish

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ta’lim tizimi oldida zamonaviy o‘quv jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish vazifasi turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” doirasida ilgari surilgan tashabbuslar ta’lim jarayoniga elektron ta’lim resurslarini keng tatbiq etish zaruratini ko‘rsatib bermoqda. UNESCO va OECD tomonidan e’lon qilingan xalqaro ta’lim standartlarida ham o‘quvchilarda axborot va media savodxonlikni erta yoshdan shakllantirish XXI asr kompetensiyalarining ajralmas qismi sifatida belgilangan.

Axborot madaniyati — bu odamlarda axborot manbalarini topish, to‘g‘ri baholash, tartibga solish, qayta ishlash, saqlash va axborotni mas’uliyat bilan, axloqiy normalarga rioya qilgan holda ishlatish qobiliyatlari va munosabatlari majmuasidir. Boshlang‘ich sinflarda bu — oddiy so‘z bilan: ma’lumotni topish, tushunish va to‘g‘r i ishlatish qobiliyati.

Axborot madaniyatining tarkibi:

Axborotni izlash va topish	savol qo‘yish, mos manbani tanlash, oddiy elektron qidiruvni amalga oshirish (masalan, so‘z yoki rasm bilan qidirish), darslik va multimediadan foydalanish
Axborotni baholash va tasniflash	bu ma’lumot to‘g‘rimi?», «qayerdan olingan?» deb so‘rash; asosiy va qo‘shimcha ma’lumotni ajratish
Axborotni qayta ishlash va tushuntirish	o‘qilgan matndan katta fikrni ajratib olish, rasm yoki jadval tuzish, sodda xulosa qilish
Axborotni tashkil etish va saqlash	qisqa taqdimot, rasm orqali tushuntirish, elektron slayd yoki poster yaratish
Axborotni yetkazish va taqdim etish	fayl yoki daftar sistemasi, qog‘oz va raqamli yozuvlarni tartibga solish
Axloqiy-qarash va xavfsizlik	mualliflik huquqi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, internetdagi odob-axloq qoidalari

ISSN 3030-3907

Boshlang‘ich ta’limda axborot madaniyatini shakllantirish ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar mustaqil ravishda ma’lumot topa bilsa, darslar yanada interfaol va ma’noli bo‘ladi. Tananing fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va matnni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi. Bundan tashqari hayotiy ko‘nikmalarni beradi va kundalik hayotda kerakli ma’lumotni topish va ishlatish — bolalar mustaqilligi uchun muhim. Shu bilan birga axloqiy va xavfsiz internetdan foydalanishni o‘rgatadi. Ma’lumki, kichik yoshdan boshlab shaxsiy ma’lumotlarni asrash, ma’lumotni nusxalash va baham ko‘rish qoidalarini o‘rgatish zarur va bu orqali kelajak kasblariga tayyorlanadi. Raqamli savodxonlik zamonaviy mehnat bozori uchun asosiy talablardandir.

Boshlang‘ich sinf uchun o‘qituvchi axborot madaniyatini shakllantirishda konkret maqsadlar va o‘quv natijalarini belgilaydi, masalan, dars oxirida o‘quvchi quyidagilarni bajara olishi kerak:

• oddiy qidiruv so‘zlarini ishlatib kerakli rasm yoki matnni topadi;
• o‘qilgan qisqa matndan 2–3 ta asosiy fikrni ajrata oladi;
• topilgan ma’lumotni rasm, jadval yoki 3 ta gap bilan izohlaydi;
• internetda shaxsiy ma’lumotlarni sir tutish tamoyilini aytadi;
• o‘qituvchi ko‘rsatmasi bilan kichik elektron prezentatsiya yoki poster tayyorlaydi.

Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin.

“Top–baholang” mashqi: O‘quvchilarga bir nechta oddiy veb-sahifa yoki elektron darslik sahifalari beriladi, ular qaysi biri ishonchli ekanini aytib, nima sababdan tanlaganini izohlaydi.

Rasm orqali xulosa qilish: Bolalar o‘qigan matn asosida rasm chizadi yoki sxema tuzadi — bu axborotni qayta ishlashni rivojlantiradi.

Mini-proyekt (guruhlarda): “Men sevgan hayvon haqida ma’lumot yig‘ish” — topilgan ma’lumotni qisqa slaydga yoki posterga joylashtirish.

Gamifikatsiya: Elektron viktorinalar yoki interaktiv testlar orqali motivatsiyani oshirish.

Dars samaradorligini oshirish uchun darsni qisqa bloklarga bo‘lish (boshlang‘ich yosh uchun 10–15 daqiqali faol qism), visual va o‘yin elementlarini ko‘proq qo‘llash (rasmlar, animatsiyalar, kartochkalar), individual va guruh ishlarini uyg‘unlashtirish (ham hamkorlik, ham individual qobiliyatlar rivojlanadi), oddiy baholash mezonlarini oldindan bildirish (aniq ko‘rsatma: «3 gap bilan xulosa qil», «3 manbadan ma’lumot top»), onlayn xavfsizlik va axloqiy me’yorlarni doimiy takrorlash muhim qismlardan hisoblanadi. O‘quvchilarga

• topgan ma’lumotni to‘g‘ri saralay olishi;
• matndan asosiy g‘oyani ajrata olishi;
• topilgan ma’lumotni qisqa va tushunarli taqdim eta olishi;

ISSN 3030-3907

• onlayn xatti-harakatlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi;
• mustaqil yoki guruhda berilgan vazifani bajarish darajasiga ko‘ra baho berilishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda jamiyat “axborotlashgan jamiyat” deb ataladi. Axborot har bir inson hayotida asosiy resursga aylanmoqda. Bolalar ham juda erta yoshdan telefon, planshet, internet va boshqa texnologiyalar orqali ma’lumot oladi. Agar ular axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va undan foydalanishni o‘rganmasa, noto‘g‘ri yoki zararli ma’lumotlarga berilib ketish xavfi bor. Shu sababli axborot madaniyati ilk bosqichdan shakllanishi shart.

Boshlang‘ich sinf — bu bola ongining shakllanishida eng muhim davr. Bu davrda o‘quvchilarda axborotni idrok qilish va yodda saqlash, asosiy va ikkinchi darajali ma’lumotni ajratish, o‘z fikrini tushunarli bayon qilish, axborotni oddiy vositalar orqali taqdim etish (rasm, jadval, qisqa gaplar) kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Agar bu ko‘nikmalar erta yoshda berilmasa, keyingi bosqichlarda o‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyati pasayadi. Axborot madaniyatiga ega o‘quvchi darslikdan tashqari qo‘shimcha manbalardan foydalana oladi, o‘qituvchi bergan topshiriqni tezroq va mustaqil bajaradi, savollar berish va javob topishda faol bo‘ladi va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Demak, axborot madaniyatini shakllantirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Hozirgi davrda raqamli savodxonliksiz na o‘qishda, na kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinfdan axborot madaniyatini shakllantirish bolalarning keyingi o‘qishi uchun poydevor yaratadi va raqobatbardosh, bilimli, zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan shaxsni tarbiyalaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirish — zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu nafaqat o‘quvchilarning o‘qish samaradorligini oshiradi, balki ularni ongli, tanqidiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, axborotdan to‘g‘ri foydalanadigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishda pedagogik omillar bir qancha. O‘qituvchi — axborot madaniyatini shakllantirish jarayonining bosh tashkilotchisi. U darslarda axborot texnologiyalarini to‘g‘ri tanlashi, metodlarni bolalar yoshiga moslashtirishi kerak. O‘quvchilarda mustaqil izlanishga qiziqish uyg‘otadigan savol va topshiriqlar berishi muhim. Shu bilan birga dars jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o‘z ahamiyatiga ega. Multimedia taqdimotlar, elektron darsliklar, interaktiv o‘yinlar bolalarning axborot bilan ishlashini osonlashtiradi. Masalan, o‘qish savodxonligi darsida matnga oid interaktiv test yoki rasmli izohli topshiriqlar o‘quvchilarda axborotni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Pedagogik omillar ichida o‘quv dasturi va materiallarni to‘g‘ri tanlash ham muhim. Bolalar yoshiga mos, tushunarli, hayotiy

ISSN 3030-3907

misollar asosidagi axborot ularda qiziqish uyg‘otadi. Axborotning hajmi ham muhim: juda ko‘p yoki ortiqcha murakkab ma’lumot bolani charchatadi. Axborot madaniyatini o‘rgatishda “Aqliy hujum”, “Klaster”, rol o‘ynash yoki elektron viktorinalar kabi metodlar yaxshi natija beradi, chunki guruhiy va juftlik ishlari bolalarning muloqotda axborotni to‘g‘ri ishlatishini rivojlantiradi. Shu o‘rinda mustaqil ish va loyihaviy topshiriqlar ham o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, o‘quvchilarga oddiy loyiha vazifalari berilishi mumkin: “Sevimli kitobim haqida ma’lumot yig‘ish”, “Internetdan qiziqarli hikoya topib taqdim qilish”. Bu orqali bola nafaqat ma’lumot topadi, balki uni qayta ishlash, xulosa chiqarish va sinfdoshlariga tushuntirishni o‘rganadi. Axborot madaniyatini shakllantirishda baholashning ham o‘ziga xos o‘rni bor. O‘qituvchi faqat natijani emas, balki axborot bilan ishlash jarayonini ham e’tiborga olishi kerak. Rag‘batlantirish (maqtov, stiker, kichik sovrinlar) o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi.

Pedagogik omillar — bu o‘quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. O‘qituvchining metodik yondashuvi, dars vositalarini tanlashi, interfaol usullardan foydalanishi va baholash tizimi mazkur jarayon samaradorligini belgilaydi. Shu qatorda axborot madaniyatini samarali shakllantirish jarayonida psixologik omillar ham muhim o‘rin tutadi. Chunki har bir o‘quvchining yoshi, psixik rivojlanishi, qiziqishi va tafakkur xususiyatlari axborotni qabul qilish va undan foydalanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy psixologik omillar:

1. Yosh xususiyatlari. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (7–10 yosh)da diqqat barqaror emas, tez chalg‘iydi. Shu sababli axborotni kichik bo‘laklarga ajratib, qiziqarli shaklda berish muhim. Bu davrda obrazli tafakkur kuchliroq, mavhum tafakkur esa asta-sekin rivojlanadi. Shu sababli vizual axborot vositalari (rasm, animatsiya, multimediali resurslar) samarali bo‘ladi.

2. Diqqat va xotira. Bolalarning mexanik xotirasi kuchli bo‘lsa-da, mantiqiy xotirani rivojlantirish talab etiladi. Axborot madaniyatini shakllantirishda takrorlash, taqqoslash, mantiqiy bog‘lanishlarni izlash muhim psixologik metod hisoblanadi.

3. Qiziqish va motivatsiya. Axborot bilan ishlash jarayoni bolaga qiziqarli bo‘lsa, u mustaqil ravishda ham o‘rganishga intiladi. O‘quvchilar o‘yin, interaktiv topshiriq va tajriba orqali berilgan axborotni tezroq qabul qiladi.

4. Ijodiy tafakkur va tanqidiy fikrlash. Boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat yuqori bo‘ladi. Axborot madaniyatini shakllantirishda bolani faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki savol beruvchi, tahlil qiluvchi, mustaqil fikr bildiruvchi shaxs sifatida tarbiyalash psixologik asosdir.

ISSN 3030-3907

5. Kommunikativ ehtiyoj. Bolalar o‘z tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlashga moyil. Axborot resurslaridan foydalanish jarayonida jamoaviy topshiriqlar, muhokamalar samarali psixologik vosita hisoblanadi.

Psixologik omillarni hisobga olgan holda o‘quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish — bu ularning yosh psixologiyasi, diqqat va xotira xususiyatlari, qiziqishi, ijodiy tafakkuri va kommunikativ ehtiyojlariga mos keladigan ta’limiy faoliyatni tashkil qilish demakdir.

Axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni murakkab bo‘lib, u faqatgina pedagogik yondashuv yoki psixologik xususiyatlar bilan cheklanmaydi. Har ikkala omil bir-birini to‘ldiradi va uzviy bog‘liq holda ishlaydi. Pedagogik jihatdan tanlangan metod (interaktiv usul, axborot texnologiyalari, dars shakllari) o‘quvchining psixologik qiziqishiga mos kelgandagina samarali bo‘ladi. Masalan, vizual materiallardan foydalanish — boshlang‘ich sinf o‘quvchisining obrazli tafakkurini rivojlantiradi. Pedagog o‘quvchiga o‘zlashtirish oson bo‘lgan, hayotiy misollar bilan boyitilgan dars mazmunini tanlasa, o‘quvchida psixologik jihatdan qiziqish uyg‘onadi. Qiziqish esa o‘z navbatida o‘quv jarayonini samarali qiladi. Pedagogik yondashuv bolani mustaqil fikrlashga o‘rgatadi, psixologik jihatdan esa bu tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ikki omil uyg‘unlashganda o‘quvchi axborotni nafaqat o‘zlashtiradi, balki uni tahlil qilishni ham o‘rganadi. Pedagogik jihatdan guruhli mashg‘ulotlarni tashkil qilish, psixologik jihatdan bolalarning tengdoshlari bilan muloqot qilish ehtiyojini qondiradi. Natijada o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadi, axborotni baham ko‘radi va ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Pedagogning sinfdagi tartib-intizomni tashkil etishi, psixologik jihatdan o‘quvchilarda mas’uliyat, diqqatni jamlash va o‘zini boshqarish qobiliyatini shakllantiradi.

№	Pedagogik omil	Psixologik omil	O‘zaro bog‘liqlik
1.	Interaktiv metodlardan foydalanish	Qiziqish va motivatsiya	Qiziqishga mos metod samaradorlikni oshiradi
2.	O‘quv materialini vizuallashtirish	Obrazli tafakkur ustunligi	O‘quvchi axborotni tezroq qabul qiladi
3.	Guruhli mashg‘ulotlar	Kommunikativ ehtiyoj	Jamoada ishlash va axborotni almashish kuchayadi

ISSN 3030-3907

4.	Mustaqil topshiriqlar	Tanqidiy fikrlash	Mustaqil qaror qabul qilish rivojlanadi
5.	Tarbiyaviy yondashuv	Shaxsiy fazilatlar rivoji	Axborot madaniyati bilan birga axloqiy qadriyatlar shakllanadi

Pedagogik va psixologik omillar o‘zaro uyg‘unlashganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot madaniyatini samarali shakllantirish mumkin. Pedagog metodlarni tanlasa, psixologik xususiyatlar ularni samarali qabul qilishni ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirish bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki axborot oqimlari tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda bolalarni yoshligidan axborotni qabul qilish, saralash, tahlil qilish va undan samarali foydalanishga o‘rgatish zarur. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, bu jarayonning muvaffaqiyati pedagogik va psixologik omillarning uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Pedagogik omillar — ta’lim mazmuni, metod va texnologiyalar, tarbiyaviy yondashuv hamda o‘qituvchi faoliyati orqali namoyon bo‘lsa, psixologik omillar — o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, diqqat va xotira jarayonlari, qiziqish va motivatsiyasi, ijodiy tafakkuri hamda kommunikativ ehtiyojlari bilan belgilanadi. Shu bois axborot madaniyatini shakllantirishda dars jarayonida innovatsion metodlar va elektron ta’lim resurslaridan foydalanish, o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish, o‘yin va interaktiv mashg‘ulotlar orqali ularning qiziqishini oshirish, jamoaviy faoliyat va mustaqil izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash zarurdir. Xulosa qilib aytganda, pedagogik va psixologik omillar uyg‘un qo‘llanilganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot madaniyati nafaqat bilim va ko‘nikma sifatida, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijtimoiy faoliyat sifatida shakllanadi. Bu esa kelajakda raqamli jamiyat sharoitida yetuk, mas’uliyatli va ongli shaxs bo‘lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekmurodov A. Raqamli ta’limning rivojlanish tamoyillari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
2. Tursunov U. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2018.
3. Karimova R. Axborot madaniyatini shakllantirish metodlari. – “Ta’lim taraqqiyoti” ilmiy jurnali, 2021, №4.

ISSN 3030-3907

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5125-sonli qarori. Raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2021-yil.
5. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris, 2018.

ISSN 3030-3907